

СҮЗ САНЬАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
3 - МАХСУС СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК - 3

INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
SPECIAL ISSUE - 3



ТОШКЕНТ-2020

СЎЗ САНЬАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ | МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№SI-3 (2019) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2019-SI-3>

Бош мухаррир:
Холбеков Муҳаммаджон
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош мухаррир ўринбосари:
Тўхтасинов Илҳом
ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Таҳрир хайъати:

Назаров Баҳтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннүллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматқул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мұхтар
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабаев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмуҳаммадов Ҳуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:
Холбеков Муҳаммаджон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Тўхтасинов Илҳом
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Назаров Баҳтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғлы
д.ф.н., профессор (Турция)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннүллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматқул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархўжаев Мұхтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмуҳаммадов Ҳуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Ўзбекистан)

Editor in Chief:
Kholbekov Muhammadjan
Doc.of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor
Tuhtasinov Ilhom
Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. sciен., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. sciен., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. sciен., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. sciен., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. sciен., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. sciен. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

Pagemaker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Тилшунослик / Языкоzнание / Linguistics

1. Li Didi A COMPARISON STUDY ON THE METAPHOR OF “LIFE IS A JOURNEY” IN CHINESE AND ENGLISH LITERARY TEXTS.....	5
2. Гофурова Мавлуда Ботиржон қизи ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ВАРВАРИЗМЛАРНИНГ ТИЛ НОРМАСИ ВА МЕЙЁРЛАШУВГА МУНОСАБАТИ.....	17
3. Давлатова Раъно Ҳайдаровна, ЎЗБЕК ТИЛИДА ДЕЙКСИС МАЙДОНИ МАСАЛАСИ.....	24
4. Инамова Марина Тимуровна ВАЖНОСТЬ СОСТАВЛЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО МИНИМУМА И СИСТЕМНОГО ЕГО ВВЕДЕНИЯ В ПРОГРАММУ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ 1 –ГО КУРСА ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ФАКУЛЬТЕТОВ.....	30
5. Киселев Дмитрий Анатольевич, Юсупова Мухаббат Собировна ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОГНИТИВНОГО СЦЕНАРИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ.....	37
6. Курганов Аивар Мухторович ЛИНГВОМАДАНИЙ КАТЕГОРИЯЛАР КОНТЕКСТИДА ҲАРБИЙ ЛЕКСИКА.....	44
7. Nargiza Burieva Kuchkarovna, LINGUISTIC ANALYSIS OF THE LITERARY TEXT.....	51
8. Раҳимов Ахмат Султонович, Назарова Шахло Бахтиёровна, ТРАНСПОЗИЦИЯНИНГ ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ТИЛЛАРИДАГИ ТАЛҚИНИ.....	57
9. Рузиева Ситора Асроровна ЯЗЫКОВОЕ ОТРАЖЕНИЕ ОТДАЛЁННЫХ РОДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ.....	65
10. Sadreddinzoda Safiya Shaxobiddinovna DEMONOLOGIK LUG'AT KO'P O'LCHOVLI SEMANTIKANI O'RGANISH OB'EKTI SIFATIDA.....	71
11. Salixova Nodira Nurullayevna UNDOV SO'ZLARNING SO'ZLASHUV TILIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	76
12. Санжаровна Лазиза Ҳудайбердиева, Маргуба Хошимовна Будикова ТИЛНИНГ АТАШ ВА ГНОСЕОЛОГИК ВАЗИФАЛАРИДАГИ ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАР.....	81
13. Собиров Қаҳрамон Салоевич, ЎЗБЕК ДРАМАТУРГИЯСИДА “КЎЗ” СЎЗИ АСОСИДА ШАКЛАНГАН ИБОРАЛАР СЕМАНТИКАСИ.....	87

14. Temirova Kamola, O'ZLIK ILMI VA O'ZBEK FILMI ("MAHALLADA DUV-DUV GAP" KINOFILMIDA ISHLATILGAN IBORALAR TALQINI).....	93
15.Тоирова Гули Ибрагимовна, ЎЗБЕК ТИЛИ МИЛЛИЙ КОРПУСНИ ЯРАТИШДА ИНТЕРФЕЙСНИНГ АҲАМИЯТИ.....	100
16.Туробов Абдурайим Маликович, ЯСАМА СЎЗЛАР ДЕРИВАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ.....	105
17. Fozilova Makhina Adashevna, SELECTION AND CLASSIFICATION OF SPEECH ETIQUETTE UNITS OF THE STUDIED LANGUAGE FOR EDUCATIONAL PURPOSES.....	112
18. Enazarov Tolib Djumanazarovich, Qurbanov Nodirjon Buriboyevich DERIVATIVE OPPORTUNITIES OF TOPOONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	117
19. Ernazarova Iroda Shavkatovna, SO'Z IJODKORINING QOMUSIY LUG'ATI TADQIQI.....	124

Таржимашунослик / Переводоведение / Translation Studies

1.Досбаева Наргиза Тургуннўлатовна ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСЕМАЛАРИНИНГ ИНГЛИЗ ТИЛИГА ҚИЛИНГАН ТАРЖИМАЛАРИДАГИ ЛИНГВОМАДАНИЙ БЕЛГИЛАР (А.Кодирийнинг "Ўтган кунлар" романда қўлланган "ихлос" ва "ғаріб" сўзлари мисолида).....	129
2.Рустамова Шахноза Абдурахимовна, VIII-IX АСРЛАР ЮНОН ТИЛИДАН АРАБ ТИЛИГА ҚИЛИНГАН ТАРЖИМАЛАР.....	138
3. Tursunova Feruza Tursun kizi, INTERACTION OF CONTRASTING LINGUISTICS AND TRANSLATION THEORY.....	143
4.Yuldasheva Umida THE IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN THE PROCESS OF TRANSFORMATION.....	148

**СҮЗ САНЬЯТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART**

Salixova Nodira Nurullayevna
Buxoro davlat Universiteti

UNDOV SO'ZLARNING SO'ZLASHUV TILIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-SI-3-11>

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, har bir tilda shu tilda so'zlashuvchixalqning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlar bevosita o'z aksini topadi. Shuningdek, til doim jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvuretib bo'lmaydi. Ushbu bog'liqlikning asosiy komponenti bo'lgan tilning vujudga kelishida esa, undov so'zlarning ham o'ziga xos ahamiyati mavjud. Uning yordamida nutqimiz jonliligi, ishonchliligi ortadi, nutqdagi his-tuyg'u bo'yog'ini beradi.

Ushbu maqolada undov so'zlarning so'zlashuv tilidagi o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan undov so'zlarning o'zbek yozuvchilarasi asarlari, hikoyalari va she'rlarida kishilar his-hayajoni hamda psixologik dunyosi bilan bog'liq holatlarni ifodalash vositasi sifatida qo'llanilishi aks ettilrilgan.

Tayzinch so'zlar: undov so'zlar, so'z qurilishi, his-hayajon, bo'yoq dorlik, ichki kechinma, ta'sirchanlik, ohang, so'zlashuv tili.

Salikhova Nodira Nurullayevna,
Teacher of the English linguistics department of Bukhara State University

DISTINCTIVE FEATURES OF EXCLAMATION MARKS IN THE COLLOQUIAL LANGUAGE

ANNOTATION

It is known that the culture, lifestyle and values of the people speaking this language in each language are directly reflected. Also, language has always been inextricably linked with society, and it is impossible to imagine them without each other. In the case of the occurrence of a language, which is the main component of this attachment, exclamation words also have their own special significance. With its help, the vitality, reliability of our speech increases, gives a paint of emotion in speech.

This article reflects the specific features of exclamation words in the colloquial language, including the use of exclamation words as a means of expressing the feelings and psychological world of people in the works, stories and poems of Uzbek writers.

Key words: exclamation words, word construction, emotion, painting, inner forgiveness, impressiveness, tone, colloquial language.

Салихова Нодира Нуурллаевна,
Бухарский государственный университет,
преподаватель кафедры английского языкоznания

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСКЛИЦАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В РАЗГОВОРНОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Как известно, культура, образ жизни и ценности народа, говорящего на одном языке, находят свое прямое отражение в каждом языке. Также язык всегда неразрывно связан с обществом и невозможно представить их друг без друга. Что касается языка, который является основным компонентом этой связи, то в нем также есть особое значение восклицательных слов. С его помощью наша речь приобретает живость, уверенность, дарит эмоциональную окраску в речи.

В данной статье отражены особенности произношения восклицательных слов, в том числе использование восклицательных слов в произведениях, рассказах и стихах узбекских писателей как средства выражения эмоций и психологических состояний людей.

Ключевые слова: восклицательных слов, словообразование, эмоция, живопись, внутреннее прощение, выразительность, интонация, разговорный язык.

Qadimgi til haqidagi manbalarda undovlar maxsus so'z kategoriyasi sifatida emas, balkitilning, so'zlarning paydobo'lishinianiqlashmunosabatibilanginatekshirilgan[1]. Bu manbalar tarixi antik dunyo faylasuflari tomonidan ilgari surulgantilining paydo bo'lishi haqidagi nazariyalaridan boshlanadi.Til paydo bo'lishihqidagi bunday farazlardan biri undovlar haqidagi farazdir.Bu faraz hamqadimiy bo'lib, uning asosida hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Bu farazasoschilarining fikricha, ibtidoi davr odamlari turli hayvonlarning tovushlari,baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib, ularga taqlid qilib o'zlarining ichki kechinmalari,his-tuyg'ularini ifoda etganbo'lib,uning asosida undovlar paydo bo'lган.
Tildagiboshqaso'zlara esaanashukabiundovso'zlardankelibchiqqandebhisoblanadi.Biroq undov haqidaginazariya antik falsafada tilning paydo bo'lishihqidagi yagona nazariya emas edi. Biroq, tilning paydo bo'lishi muammosini undovlar bilan bog'lab tushuntirish aynizamonda ana shu yo'nalishdagi boshqa bir nazariyaga qarama-qarshi qo'yilgan.

Tovushga taqlid nazariyasining ko'p holda tilshunoslik nuqtai nazaridanto'g'ri emasligi undov nazariyasi tarafdarlariga yo'l ochgan edi. Undov nazariyasidastavval yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan. Bu nazariya qadimgi Rimshoiri Tit Lukrechiydan meros bo'lib qolgan.Uning fikricha, til kishilarining o'zruhiy holatlarini tovushlar orqali ifodalash ehtiyojidan maydonga kelgan. Emotsiyatijasida tug'ilgan tabiiy tovushlar undovlarni yaratadi.Qolgan barcha so'zlar keyin ana shu undovlardan taraqqiy etadi. Qadimgi inson atrofidagi narsa vahodisalarni ko'rghanida paydo bo'lган his-hayajon natijasida g'ayri ixtiyoriytovushlar chiqargan. Bu tovushlar keyinchalik o'sha predmetlarni ifodalaydiganbo'lib qolgan degan tamomila noto'gri xulosaga kelgan.

Ma'lumki, gap qurilishi uchun har bir lisoniy birlikning o'z o'rnini bor. Jumladan, undov so'zlar ko'pgina tadqiqot ishlarining obyekti bo'lган bo'lsa-da, uning nutqiy xususiyatlari, so'zlashuv tilidagi ahamiyati hali to'liq tadqiqqilinmagan[1].

Undov gap - so'zlovchining ichki his-hayajonini, voqelikka bo'lган turlicha emotsiyal munosabatlarini ifodalovchi gapdir. Undov gap o'ziga xos tuzilishga va grammatik belgilarga ega. Undov gapda ohangning roli katta bo'lib, qanday mazmun ifodalanishiga qarab, ohang ham o'zgarib turadi. Undov gaplarda hayratlanish, taajjub, zavqlanish, orzu-umid, achinish, qo'rqish kabi emotsiyal mazmun ifodalanishi mumkin.

Undov so'zlarning takror qo'llanishi va matnda bir necha undov so'zning birgalikda qo'llanishi so'zlarning turli ma'no qirralarini ochish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, gapdagi ifodaviylilik, ta'sirchanlikni oshiradi: Voy, tasaddug'-ey, ey, voy, tasaddug'-ey! Ho'o'p bolalarimiz bor-da, tasadduq! – dedi A'lobush, - Sobirjonimni aytmaysizmi, tunov kuni xatoyi mandalinni posilka qilsam

nima deysis, depti. Yo'q, dedim, tasadduq, yo'q, dedim. O'zing kiyaver, dedim. Maskopda yarashadi bunaqa kiyimlar, dedim (O'lmas Umarbekov "Sovg'a") [8].

Yuqoridagi parchada ikki marta qo'llanilgan "voy", uch marta qo'llanilgan "ey" undovlari badiiy asarda personajlar xarakteri, ichki kechinmalarini olib berishda muhim rol o'ynaydi. Undovlarning qaysi so'zlar bilan qo'llanilishi ham fikrning ta'sirchanligini oshirish, qaysi millatga mansubligini olib berishda katta ahamiyatga ega. Keltirilgan misolda undovlar boshqa millatlar tilida uchramaydigan "tasadduq" so'zi bilan qo'llanilar ekan, o'zbekona xarakterni olib berish, momolarimizning farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbatlari cheksizligini ifodalashga xizmat qilgan.

Undovlar tilda kishilar his-hayajoni, psixologik dunyosi bilan bog'liq holatlarni ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladi. Undov so'zlar nutqda takror holda qo'llanilganda ta'sirchanlik, ifodaviylik, bo'yoqdorlik kuchliroq ifodalanadi.

Ay, tutqinlar, ay, ezilgan,

Ay, qynalgan, yo'qsil ellar,

Ay, umidsiz, ay chizilgan

Dor oldiga... Oppoq dillar!

Cho'lpomming "Vijdon erki" deb nomlangan she'ridan olingen yuqoridagi parchada undov so'zlarni qo'llash orqali shoir ezilgan, qynalgan, kamsitilgan, og'ir ahvolda qolgan xalqning kechinmalar, boshidan o'tkazgan qiyinchiliklарini ifodalash bilan bir qatorda, ularga bo'lgan achinish, hamdardlik kabi tuyg'ularini ifodalashga harakat qilgan. Ayniqsa, undovlarning aynan takror qo'llanishi takrir san'atini yuzaga keltirib, "tutqin", "yo'qsil", "umidsiz" kabi so'zlar bilan birligida qo'llanilishi ta'sirchanlikni yanada oshirishga xizmat qilyapti. Ushbu she'rni o'qigan har bir kitobxonning ko'nglida xalqqa achinish, mustamlakachilarga nafrat uyg'onadi. Bunda undovlarning takror holda o'rinli foydalanganligi shoirning yuksak mahoratidan dalolat berib, nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirgan.

Undov so'zlar so'zlovchining ifodalananayotgan fikrga o'zining munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Matn mazmuni va vaziyatdan kelib chiqib undov so'zlar bir necha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Ularning bir necha marta takror qo'llanilishi esa ta'sirchanlik va ifodaviylikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,

U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin!

Ey, menim bog'imdan mevamni terg'onlar,

U qora boshingiz yerlarda ko'mulsin![9]

Cho'lpomming "Xazon" she'ridan olingen yuqoridagi parchada undov so'zlarni qo'llash orqali bosqinchilar, mustamlakachilarga murojaat, ularga bo'lgan salbiy munosabati, nafrat va adovat kabi tuyg'ulari ifodalangan. Bundan tashqari, "sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar", "menim bog'imdan mevamni terg'onlar" kabi istorialarning undovlar bilan yonma-yon qo'llanilganligi o'sha davrlarda xalqqa qilingan zug'um, zo'ravonlik, kamsitish, xo'rashlarning kuchayganligini ko'rsatish, erksizlik va haqsizlik davrlariga tinglovchini olib kirishga yordam bergan. Ayni bir undov so'zning ikki misrada, 1- va 3-misralarda qo'llanishi mustamlakachi hukumatga bo'lgan nafratning naqadar kuchlilagini ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

Ma'lumki, his-hayajon undovlari turli his-tuyg'ular, kechinmalarini ifodalaydi. Shodlik, xursandchilik, ta'kid, taajjub, xafalik, hamdardlik, afsuslanish kabilar shular jumlasidadir. Undovlarning qo'llanilishida ohangning roli kuchli. Binobarin, so'zlar ma'lum ohang bilan aytilsagina his hayajonni ifodalaydi. Ayni shu sababli ham undovlar ko'pincha she'riyatda o'quvchi-she'rxonning e'tiborini tortish, she'rdagi kechinmalar ifodaviyligi, ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida ko'p qo'llaniladi.

en yetim o'sganman

Oh, u yetimlik...

Voy bechora boshim

Desam arziyi.

Boshimni silashga

Bir mehribon qo'l,

Biz og'iz shirin so'z
 Nondek arzanda.
 Men odam edim-ku...
 Inson farzandi...
 (G'afur G'ulom "Sen yetim emassan")

She'riyatda ma'no ifodalashda shoirning mahorati katta ahamiyat kasb etadi. Buyuk adib G'afur G'ulomning yuksak mahorati, o'tkir qalami bilan dunyoga kelgan yuqoridagi parchada "Oh" undovning o'z o'rniда qo'llanilishi she'rda badiylik, tasviriylikni oshirgan. Undov so'z orqali urush sababli ota-onasi, oilasidan ayrilgan, ko'ngli yarim, davr qurban bo'lgan bolalarga hamdardlik, ularning taqdiridan xafalik, afsuslanish tuyg'ulari ifodalangan. Darhaqiqat, shoirning o'zi ham o'sha davr qurban, yoshligidan ota-ona mehrini ko'rmay, urush yillarida bolaligini o'tkazgan, xuddi shu bolalar ichki kechinmalarini yaxshi anglagan, ularga hamdard, zamon qiyinchiliklarini boshidan kechirgan inson sifatida kitobxonga ta'sir qiladi.

Undov so'zlar kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash uchun xizmat qilar ekan, og'zaki so'zlashuv nutqidan tashqari, badiiy asarlар, dramatik va she'riy asarlarda ham keng qo'llaniladi. Dramatik asarlarda qo'llanilgan undov so'zlarning ma'no ifodalanishida ularning qanday ohang bilan aytlishi ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular darajalanib kelganda. Undovlar graduonimiyasi ham sermahsul ekanligini hisobga olsak, ularning graduonimik qatoridan foydalanish nutqning ifodalilagini oshirish, ma'noni bo'rttirishda katta ahamiyatga ega. Oh, voy, oh-voh, dod-voy kabi darajalanishlar nisbiy bo'lib, bu qatorni davom ettirish va, ayni vaqtida, ohang orqali ulardagi ma'noni kuchaytirish yoki pasaytirish mumkin. Bunday vaqtida ulardagi darajalanish qatori nisbiy bo'lib qoladi(fikr takroran qo'llangan). Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. Quyidagi parchada(bu ham takror) "Dod" va "voy" undovlari darajalanib kelgan. Aslida darajalanish qatorida "voy" undovi "dod"ga nisbatan kuchsiz bo'lib, ohangi kuchaytirish, "y" tovushini takror, cho'zib aytish natijasida bu qator shartli ravishda o'zgargan, ya'ni "voy" undovida ma'no kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatilgan.

Dod, voy bolam. Voy, boyim. Ikkisidan ham ayrildim. Erimni mozorg'a, bolamni Sibirg'a yuborarlar. Voy, voy, voy-y-y(Behbudiy "Padarkush") [5].

Ohang, tovushlarni cho'zishdan tashqari, ayni bir undovni bir necha marta qo'llash yoki ayni shu usullarni birgalikda qo'llash orqali ham ma'no kuchaytirilishi mumkin.

Ho-ho-o! – deb baqirdi. –Biri ola, biri qora echki ko'rgan bormi! Suyunchisini olib kelaverho! Qo'ziboy jarchining makkasini yeb yuripti! Baraka topsin egasi-yo!

Shukur Xolmirzayevning "Qariya" hikoyasidan olingan yuqoridagi parchada "ho" undov so'zini bir vaqtning o'zida bir necha marta, ayni bir parchaning o'zida bir necha marta qo'llanilishi va "o" tovushining cho'zib talaffuz qilinishi natijasida ma'no kuchaytirilib, bo'rttirilib ko'rsatilishiga yordam bergen. Gap oxirida undov so'zning boshidagi "h" tovushining "y"ga o'zgarishi ham so'zning ma'no qirralarini ohib berishga xizmat qilgan.

Nutqda bir necha xil ma'no ifodalovchi undovlar birgalikda qo'llanilishi ham kuzatiladi. Ayniqsa, she'riyatda shoirlar ularni birga qo'llash orqali ma'noni kuchaytirib, kitobxonning e'tiborini kuchliroq jalg etish maqsadida foydalanadilar. Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostonidan olingan quyidagi parchada undovlardan ayni shu maqsadda foydalanilgan. "Eh" his-hayajon undovi bo'lib, oh, uh, be, voy, o'hu, ehe, obbo kabi undovlar afsus, achinish, zavqlanish, hayratlanish ma'nolarini anglatadi. "Hey" esa buyruq-xitob undovlari sirasiga kirib, kishilar e'tiborini kuchliroq jalg qilish, chaqirish kabi ma'nolarni ifodalarydi va shu jihatdan hoy, hay, ey kabi undovlar bilan umumiylikni tashkil qiladi. She'riy parchada "guvohlar"ga murojaat mayjud bo'lib, murojaatni kuchaytirish, ularga turli munosabatlarni ifodalash uchun "eh" undovi ham yonma-yon qo'llangan.

Eh-hey, mening shahrimning ko'hna qissasin,
 Qissasinki, ming yillar qa'rige cho'mgan,
 Yer qatlarida qotgan sir-hodisasin.
 Hodisaki, vaqt uni tuproqqa ko'mgan, -
 Kimlar ayta oladi? Bormi guvohlar?[6]

Undov so'zlar xursandchilik, hamdardlik, achinish, yaqinlik, hurmat, mensimaslik, e'tiborni jalg qilish, tabrik, xayrashuv, tashakkur, zavqlanish kabi turli his-hayajonlarni ifodalar ekan, ular orasida so'zlovchi va tinglochining yoshi, amali, yaqinlik darajasi ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hurmat, mensimaslik ma'nolarini ifodalaganda yuqoridagi jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi: Nimaga mucha zarda qilasan? Man sang'a tekin ariza yozub ber devotmanmi? Yozg'anda pulg'a yozub berasan. Jahling chiqadurg'on bo'lsa, advokatlik qilma!. Hmm... bolam, advokatlik osonmi?[4]

Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" asaridan olingen yuqoridagi parchada "Hmmm" undovi so'zlovchining jahli chiqqanligini, unga nisbatan mensimaslik, zardalarni ko'tara olmaslikni ifodalash uchun xizmat qilgan. "m" tovushining takrori esa ma'noni bo'rtirib, kuchaytirb ko'rsatilishiga xizmat qilgan.

Undov so'zlarning matnda qaysi so'zlar bilan birga qo'llanilishi va, ayni vaqtida, takror ifodalanishi so'zlarning turli ma'no qirralarini ochish, ifodalilik, ta'sirchanlikni oshirish, bo'rttirish uchun xizmat qiladi.

E tavba-e, e tavba-e! Avval-avval uyatdan qulqlarimgcha lovullab yondim. Ko'nglim o'ksidi. keyin-keyin botmaydigan bo'ldi. Ko'nglimga singdi[7].

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asaridan olingen yuqoridagi parchada ikki marta qo'llanilgan "tavba" so'zi, to'rt marta qo'llanilgan "e" undovlari badiiy asarda personajlar xarakteri, ichki kechinmalarini ochib berishda muhim rol o'yinaydi. Undovlarning qaysi so'zlar bilan qo'llanilishi ham fikrning ta'sirchanligini oshirish, qaysi millatga mansubligini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Keltirilgan misolda undovlar boshqa millatlar tilida aynan uchramaydigan yoki tarjima qilinmaydigan "tavba" so'zi bilan qo'llanilar ekan, o'zbekona xarakterni ochib berishga xizmat qilgan. Bu borada "e" undovining qo'llanilishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Gap boshida kelgan undovning "tavba" so'zidan keyin kelishi, uning chiziqcha bilan ajratilishi va ayni shu holatning yana qayta qo'llanilishi ma'noni yuqori darajada aniqlik bilan ochib berishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, hayotimizda undovlarning ya'ni undov gaplarning ahamiyati kattadir. Undov gaplar nutq tushunarli va ishonchli, shuningdek, ta'sirchanligini oshirishda xizmat qiladi. Bu borada K.Paustovskiyham undovlarsiz gapni, undov gaplarsiz esa nutqimizni tasavvur etish mushkulignialohida ta'kidlagan edi.

Adabiyotlar:

- 1.Yo'ldoshev I., Sharipov U.Tilshunoslik asoslari. -Toshkent., 2007.,-B. 7
2. Ўзбек тили лексикологияси. -Тошкент: Фан, 1981. -Б.160.
3. Алибаев Н. М. Бадий матнларда эмоционал гаплар // Молодой ученик. - 2017. - №4.2. -Б. 2-3.
4. Абдулла Авлоний. Адвокатлик осонми? Драма. (Электрон ресурс): (http://www.ziyouz.com/books/uzbek_dramaturgiyasi/)
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018.
6. Мақсуд Шайхзода. Тошкентнома. (Электрон ресурс): <http://shosh.uz/maqsud-shayhzoda-toshkentnoma/>
7. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2008. –Б.297.
8. Ўлмас Умарбеков. Сайланма. Ҳикоялар. 1-жилд. Тошкент, 2009. –Б.298.
9. Чўлпон. Яна олдим созимни. <http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/nazm/>
10. Пирматова М. Үндвлар ва гендер дифференциацияси. // Ўзбек тили адабиёти. 2013. -№3. -Б. 88.